

Date: 17th January-2026

CHOR BAKR ME'MORIY MAJMUASIDAGI YETTI QOZI QABRISTONI HAQIDA

Xayrilloyev Xo'jamir A'zamxo'jayevich

Mir Arab oliy madrasasi xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro vohasidagi muhim tarixiy-me'moriy yodgorliklardan biri bo'lgan Chor Bakr majmuasida joylashgan "Yetti qozi" (Al-Quzzot as-sab'a) qabristoni va u yerda dafn etilgan mashhur hanafiy faqihlar faoliyati yoritilgan. Tadqiqotda yetti nafar qozining hayoti, ilmiy merosi, fiqh va qozilik amaliyotidagi o'rni tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, ayrim qozilarning shaxsi atrofidagi ilmiy bahs-munozaralar, xususan, yettinchi qozi masalasidagi noaniqliklar ochib beriladi. Maqola Buxoroning fiqh maktabi shakllanishi va rivojida "Quzzoti sab'a"ning tutgan muhim o'rnini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Chor Bakr majmuasi, Yetti qozi, Al-Quzzot as-sab'a, Buxoro fiqh maktabi, hanafiy mazhabi, qozilik instituti, Movarounnahr ulamolari, Abu Zayd Dabusi, Mustamliy Buxoriy, Abul Yusr Pazdaviy.

Buxoroda ilmu ma'rifati, taqvosi, parhezkorligi va adolati bilan ajralib turgan yetti nafar faqih o'tgani ma'lum. Tarixga "Al-Quzzot as-sab'a" ("Yetti qozi") nomi bilan kirgan ushbu faqihlar adolatsizlikka yo'l qo'ymagani tufayli xalq orasida katta obro' qozongan. Ular turli davrlarda yashagan bo'lsa-da, qabrlari bir joyda – Buxorodagi "Chor Bakri Buxoro" [1] majmuasida joylashgan. Shuning uchun ham ushbu qabriston xalq orasida "Mazoroti quzzoti sab'a" nomi bilan ham mashhurdir.

Buxoroning yetti qozisi hanuzgacha yaxshi o'rganilmagan. Yetti nafar faqihning ismi sharifi keltirilgan ro'yxat Abu Ja'far Ustrushaniydan boshlanadi. Olimning to'liq ismi Abu Ja'far Muhammad ibn Amr (Umar) ibn Sulaymon Sha'biy (Shu'abiy) Ustrushaniydir [2]. Tarixiy manbalarda uning tavallud sanasi to'g'risida ma'lumot uchratmadik. Ammo manbalarda vafot sanasi 1010 yoki 1013-yil deb ko'rsatilgan va "Mazoroti quzzoti sab'a" qabristoniga birinchi dafn etilgan qozi sifatida nomi zikr qilingan. U Movarounahr mintaqasining yirik faqihlaridan biri bo'lgan. Faqih dastlab Ustrushonada (hozirgi Tojikiston va O'zbekistonda joylashgan tarixiy hudud) ilmni o'z yurtida olib, keyinchalik Buxoroda qozilik lavozimida xizmat qilgan.

Abu Ja'far Ustrushaniy asos solgan Buxoro fiqh maktabini davom ettirgan "Quzzoti sab'a"ning ikkinchisi Abu Zayd Dabusi (978-1039) [3] hisoblanadi. U Abu Ja'far Ustrushaniyning xos shogirdi bo'lgan, to'liq ismi – Abu Zayd Ubaydulloh ibn Umar ibn Iso Dabusi. U Buxoro bilan Samarqand (Dobusiya yoki Dobusqal'a Paxtachi tumanining eng kohna va qadimiy tarixdan so'zlovchi o'lkasi) oralig'ida joylashgan Dabusiya qishlog'ida tug'ilib o'sgan. Abu Zayd Dabusi 20 yoshida 999-yildan keyin Qoraxoniylar tomonidan qozilik lavozimiga tayinlangan [4]. Tadqiqotlardan



Date: 17th January-2026

ko`rinadiki, Dabusiy Qoraxoniylar davrida rasmiy qozi vazifasida ishlagani sababli fiqhiy asarlarda u “Qozi Zayd” deb zikr qilingan [5].

Abu Zayd Dabusiy qator fiqhiy asarlar yozgan. U ilmi xilof bo'yicha “At-Ta'lifatu fi masoil al-xilof bayna al-aimma” (“Allomalar o'rtasida fiqh ilmidagi ixtilof yo'llari”) nomli asar ham yaratgan. Abu Tayyib Muhammad Siddiqxon ibn Hasan Qanujiyning “Abjad al-ulum” kitobida ta'kidlanishicha, hanafiy mazhabida u qiyos uslubi bo'yicha keng ma'lumot bergan, unga tegishli bo'lgan shartlar va bahslarga chek qo'ygan hamda usulul fiqh ilmini kamolga yetkazgan olim bo'lgan [6].

Yetti qozi – “Quzzoti sab'a”ning uchinchi Mustamliy Buxoriy hisoblanadi. Uning to'liq ismi – Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh Mustamliy Buxoriydir [7]. Uning hayoti va ilmiy faoliyati to'g'risida arab va fors tilida yozilgan tarojim asarlarida qisqa ma'lumotlar mavjud. U haqda birmuncha to'liq ma'lumotlar Komijon Rahimov tadqiqotida keltirilgan. Uning ta'kidlashicha, “mustamliy” so'zi arab tilida “yozuvchi”, “kotib”, “tushuntiruvchi”, “sharhlovchi” ma'nolarini bildirgan. O'rta asrlarda dars beruvchi ustozning yordamchisi, o'quvchilar savollariga javob beruvchi hamda talabalar xatolarini tuzatuvchi kishi “mustamliy” deb atalgan.

Mustamliy Buxoriy 968-970-yillar atrofida Buxoroda tavallud topgan. Uning ijodiy faoliyati Somoniylar hukmronligining oxirgi yillari va Qoraxoniylar sulolasi hukmronligining boshlariga to'g'ri keladi [8].

Yetti qozining to'rtinchisi Badiuddin Ahmad ibn Umar Buxoriydir. “Tarixi Mullozoda”da u Zahiriddin Buxoriyning otasi sifatida zikr qilinadi. U “Fatovo Badi' ad-din” yoki “Fatovo Buxoro” deb nomlangan asar muallifidir.

Yetti qozining beshinchisi – Zahiriddin Muhammad ibn Ahmad ibn Umar Buxoriy (vaf.1222) Buxoro qozisi va muhtasibi sifatida tanilgan. U Husomiddin Sadr ash-Shahidning “Al-Jomi' as-sag'ir” asariga “Favoid” nomli fiqhiy asar yozgan. Bu asar “Al-Favoid az-zahiriyya” deb ham yuritiladi. Yana uning “Al-Fatovo az-zahiriyya” nomli fiqhiy asari ham mavjud [9].

Yetti qozining beshinchi qozi Abul Yusr Pazdaviydir. Sadrul-islom Abu-l-Yusr Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulkarim al-Pazdaviy 1030-yil (hijriy 421-yil)da hozirgi Qashqadaryo viloyatidagi Pazda nomli qishlog'ida tug'ilgan. Dastlabki saboqni otasi Abu-l-Hasan Muhammad al-Pazdaviydan olgan [10]. Al-Moturidiyning shogirdlaridan bo'lgan bobosi Abdulkarim ibn Muso orqali Samarqand kalom maktabi bilan tanishish imkonidan ham foydalangan. Sadrulislom Muhammad ibn Muhammad ibn Husayn ibn Abdulkarim ibn Muso ibn Mujohid Abul Yusr Pazdaviy 421/1030-yilda tug'ilgan. Dastlabki saboqni otasi Abul Hasan Muhammad Pazdaviydan olgan. Bobosi Abdulkarim ibn Muso Pazdaviy Abu Mansur Moturidiyning shogirdlaridan biri bo'lgan. Abul Yusr Pazdaviy Samarqand kalom maktabi bilan oilasi orqali tanishish imkoniga ega bo'lgan. U bir necha asarlar muallifi. Uning qator shogirdlari bo'lib, ularning mashhurlari Abul Muin Nasafiy va Abu Hafs Najmuddin Umar Nasafiy (vaf. 537/1142) hisoblanadi [10].



Date: 17th January-2026

Yetti qozining oltinchisi Ahmad ibn Amr ibn Muso ibn Abdulloh Buxoriy (taxminan vaf.396/1006) Abu Nasr Iroqiy nisbasi bilan shuhrat qozongan. Bir muddat Samarqandda qozilik qilgan va Buxoroga ketib, o'sha yerda vafot etgan. To'ra Buxoriyning "Tuhfat az-zoiriy" ("Ziyoratchilarga tuhfa") asarida Buxoroning yettinchi qozisi sifatida nomi keltiriladi [11].

Yetti qozining yettinchisi Zavzaniy hisoblanadi. Manbalarda Zavzaniy nisbasi bilan bir necha faqihlar bo'lgani zikr etilgan. Amalga oshirilgan izlanishlar natijasi "Quzzoti sab'a"ning yettinchisi quyidagi uch faqihdan biri bo'lganini faraz qilish imkonini beradi. Ularning biri Abu Abdulloh Husayn ibn Ahmad ibn Husayn Zavzaniy (vaf.1093) yozuvchi, tilshunos, faqih va shoir bo'lgan. Uning "Sharh al-muallaqot as-sab'a", "Tarjumon al-Qur'on", "Kitob al-masodir", "Sharh boiyati ziy ar-ramat" kabi asarlari bor. Ikkinchisi, Abdurrahim ibn Abdulaziz ibn Muhammad ibn Mahmud Sadidiy Zavzaniy bo'lib, u Abu Ja'far Tahoviy (239/853-321/933)ning "Sharh maoniy al-osor" asarini rivoyat qilib, o'qitgani bilan tanilgan. U XIV asrda yashagan, Imod al-islom laqabi bilan tanilgan hanafiy faqih bo'lib, Buxoroda qozilik qilgan. "Tuhfat az-zoirin" va "Tarixi Mullozoda"da Qozi Imom Zavzan, deb keltirilgan. Uchinchi Abu Ja'far Muhammad ibn Hasan ibn Sulaymon Zavzaniy (vaf.980) bo'lib, shofe'iy mazhabi vakili bo'lgani uchun shofe'iy larning tabaqot kitoblarida zikr etilgan. U Xuroson va Movarounnahrda adolatli qozi bo'lgani bilan shuhrat qozongan. Ularning qaysi biri yettinchi qozi maqomida zikr etilgani masalasi hamon ochiqlicha qolmoqda [12].

Xulosa qilib aytganda, Chor Bakr majmuasida joylashgan "Mazoroti quzzoti sab'a" nafaqat me'moriy yodgorlik, balki Buxoroning boy ilmiy-huquqiy merosini aks ettiruvchi muhim tarixiy maskan hisoblanadi. Ushbu maqolada tahlil qilingan yetti nafar qozi Movarounnahrda fiqh ilmi, qozilik amaliyoti va adolat tamoyillarining qaror topishida muhim rol o'ynagan. Ularning ilmiy merosi hanafiy mazhabi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayrim shaxslar, xususan, yettinchi qozi masalasidagi manbalar tafovuti bu mavzuda yanada chuqur tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, "Yetti qozi" fenomeni Buxoroning islomiy ilm-fan tarixidagi yuksak mavqeini namoyon etuvchi muhim ilmiy hodisa sifatida baholanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akgündüz A. Karahanlıların Büyük Hukukçusu Ebu Zeyd Debbusi ve Mezheplerarası Mukayeseli Hukuka Te'sirleri // Selçuk Üniversitesi Hukuk Fakültesi Dergisi. — Konya (Türkiye), 1989.
2. Bedir M. Interplay of sufism, law and theology: a tenth century example / The IVth International conference of islamic legal studies on sufism and law. – Murcia (Spain), May 8-11, 2003.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Zayd_Dabbusi
4. Najmiddinov Z.X. Abu Zayd ad-Dabusiy merosining Movarounnahrda fiqh ilmi rivojida tutgan o'rni: Tar. fan. nomz. ... dis. TIU, 2007.

Date: 17th January-2026

5. Akgündüz A. Karahanlıların Büyük Hukukçusu Ebu Zeyd Debbusi ve Mezheplerarası Mukayeseli Hukuka Te'sirleri // Selçuk Üniversitesi Hukuk Fakultesi Dergisi. — Kunya (Türkiye), 1989.
6. صديق بن حسن القنوجي. أبجد العلوم. بيروت. ١٩٧٨.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mustamliy_Buxoriy
8. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi ildizlari: Tasavvuf ta'limotining shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar). – T.: “Splendid Idea” nashriyoti, 2021.
9. خير الدين الزركلي. الاعلام قاموس تراجم لاشهر الرجال و النساء من العرب و المستعربين و المستشرقين. القاهرة: دار العلم للملايين, 1998
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu-l-Yusr_al-Pazdaviy
11. محمد عبد الحى اللكنوى. الفوائد البهية فى تراجم الحنفية. بيروت. ١٩٧٢ م.
12. Muslim Atayev. “Yetti qozi” fenomenining mohiyati va islom olamidagi nufuzi. <https://bukhari.uz/>

